

ERKIN VOHIDOV LIRIKASIDA QAYTARISH BILAN BOG‘LIQ SAN’ATLAR

Komiljonova Komila

Xorazm viloyati Urganch davlat universiteti Filologiya fakulteti talabasi

komiljonova1505@gmail.com

ABSTRACT

This article provides the analysis of arts which are based on repeating words and illustrates data about the importance of the arts in the poems of «Yoshlik devoni» by Erkin Vohidov.

Key words: *mutobiqa, tasdir, ajuz, sadr, hashv, ibtido, zarb, aruz.*

ANNOTATSIYA

Maqolada Erkin Vohidovning «Yoshlik devoni» to‘plamidagi takrorlar bilan bog‘liq san’atlar va ularning shoir badiiy maqsadini amalga oshirishdagi o‘rni atroflicha o‘rganilgan. Shuningdek, qaytarish bilan bog‘liq san’atlarning jozibasi misollar yordamida ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *mutobiqa, tasdir, ajuz, sadr, hashv, ibtido, zarb, aruz.*

Ming yillik tarixga ega bo‘lgan mumtoz adabiyotimizda badiiyat masalasi hamisha she‘r ahlining diqqat markazida bo‘lib kelgan. Adabiy asarlarda she‘riy san’atlardan foydalanish mahorati hamma asrlarda badiiy san’atkorlikning asosiy qirralaridan biri sifatida baholangan. Ma’lumki, she‘riy san’atlar badiiy asarda ifodalangan g‘oyalarning hayotiyroq, ta’sirchanroq ifodalanishiga, lirik va epik timsollarning yorqinroq gavdalantirilishiga, misralar, baytlar, bandlarning lafziy nazokati, musiqiyliigi, jozibadorligini ta’minlashga xizmat qilgan. Adabiyotning tarkibiy qismi bo‘lmish ilmi bade’da bayt tarkibidagi ayrim so‘zlarni yana boshqa bir o‘rinda takror qo‘llashga asoslangan lafziy san’at turlaridan biri qaytarish san’ati hisoblanadi. Adabiyotshunos olim Rashididdin Vatvot tomonidan badiiy san’atlar ichida “*eng mumtoz va maqbullaridan biri*» hisoblangan bu san’at mumtoz adabiyotga doir asarlarning aksariyatida *radd ul-ajuz il-as-sadr*, ba’zilarida *mutobiqa*, ayrimlarida esa *tasdir* deb atalgan. Mumtoz adabiyotda baytning boshi sadr, oxiri ajuz yoki zarb, birinchi misraning oxiri aruz, ikkinchi misraning boshi ibtido va har ikki misraning o‘rtasi (sadr bilan aruzning, ibtido bilan ajuzning o‘rtasi) hashv deyiladi⁴².

⁴² A. Hojiahmedov. Mumtoz badiiyat malohati. – Toshkent: Sharq, 1999.

Biz zamonaviy adabiyotimizda o'zining aruz vazniga oid asarlari bilan ham munosib o'rin egallagan Erkin Vohidov ijodida istifoda qilingan bu lafziy san'atni guruhlariga ajratishda so'zlarning qaysi o'rinlarda takrorlanib kelganiga e'tibor qaratdik.

1. Radd ul-aruz ilal-ibtido (birinchi misra oxiridagi so'zning keyingi misra boshida qaytarilishi):

*Dona bug 'doy dema bu bosh necha ming olamcha **bor**,*

***Bor** uning har nuqtasida necha ming davron yuki.*

yoki:

*Sevgi shunday dard erurki, barcha bo 'lg 'ay **mubtalo**,*

***Mubtaloni** neki qilsa telba bu ko 'ngil qilur.*

2. Radd us-sadr ilal-hashv (bayt boshidagi so'zning misra ichida qaytarilishi).
Bu turning ikki xil ko'rinishi mavjud:

a) birinchi misradagi "sadr"ning shu misra "hashv"ida qaytarilishi:

***Ko'z** yumar bo 'lsam, **ko'zim** – oldida paydo gul yuzim,*

G 'uncha ko 'z ochmog 'i bor bulbul ko 'zin yummog 'ida.

b) "sadr"ning ikkinchi misra "hashv"i o'rnida kelishi:

***Doimo** dedim, bo 'lma oshino, parishonlik,*

*Bo 'ldi oshino dilga **doimo** parishonlik.*

3. Radd us-sadr ilal-ibtido (bayt boshidagi so'zning ikkinchi misra boshida qaytarilishi):

***Tong** emas bu tongda bo 'lsam men xayol obida g 'arq,*

***Tong** qilibdur chunki ko 'nglim bu xayoldek obida.*

yoki:

***Bir** boqishda oshiq o 'lmak bul ajablik demagil,*

***Bir** ko 'rib qaddingga mangu bo 'ldi-ku xushtor sarv.*

4. Radd us-sadr ilal-zarb (ajuz) (bayt boshidagi so'zning bayt oxirida qaytarilishi):

***Barg** dedim, ammo bilolmam, qay biri xushbo 'y ekan,*

*Ikki mushkin sunbuling yo ikki rayhon isli **barg**.*

yoki:

***Ko'z**laring yulduzmi, yo 'q, yulduz erur har uchquni,*

*Qorachig ' kuygan quyoshu, moviy osmondir **ko'zing**.*

5. Radd ul-hashv ilal-hashv (birinchi misra “hashv”ining shu misra “hashv”i o‘rnida kelishi yoki ikkinchi misradagi “hashv” o‘rnida qo‘llanilishi):

*Gulbargi lolani elt, qo‘ygin qadah yoniga,
Yuz hajrida yurak qon misli qadahda boda.*

yoki:

*Ko‘hna shahrim, tarixingni ko‘z yumib qilsam xayol,
G‘arq ko‘rindi mazlum elning ko‘z yoshi selobida.*

6. Radd ul-aruz ilal-hashv (birinchi misra oxiridagi so‘zning ikkinchi misra “hashv”i o‘rnida kelishi):

*Senga baxtdan taxt tilarman, toledan boshingga toj,
Mulki husningga omonlik, toj-u taxtingga rivoj.*

yoki:

*Ko‘zlarim aylar hamisha arzi muhtojlik senga,
Ayt-chi jonim, bormi senda ko‘zyoshim*

7. Radd ul-ibtido ilal-hashv (ikkinchi misra boshidagi so‘zning shu misra “hashv”i o‘rnida kelishi):

*Kecha oydin, mavjli dengiz, kuy to‘qir bedor sarv,
Oy kelib sarv uzra qo‘ndi, bo‘ldi oy ruxsor sarv.*

yoki:

*Ikki barg ta‘rifin Erkin she‘rga solsa tong emas,
Ul biri tashbihli bargu, ul biri tajnisli barg.*

8. Radd ul-hashv ilal-ibtido (birinchi misra o‘rtasidagi so‘zning ikkinchi misra boshida kelishi):

*Sevgi sahrosida qolmish necha Majnundan g‘ubor,
Necha Farhod gardi yotgay Bisutunning tog‘ida.*

yoki:

*O‘ltirar sochin tarab yor chashmaning o‘trusida.
Chashma o‘z aksin ko‘rar yor chehrasi ko‘zgusida.*

10. Radd ul-hashv ilal-zarb (ajuz) (misra ichidagi so‘zning bayt oxirida kelishi):

*Men-ku yor vasliga keldim sarv tagin xilvat bilib,
Erta tong olamga so‘ylab, qilmagin oshkor, sarv.*

yoki:

*Titramog‘im boisi ul bargni tebranmog‘idur,
Yoki ohimdanmu tutrar bo‘yla nozik hisli barg.*

Bu misollarda keltirilgan qaytarish san'ati bilan bog'liq o'rinlar shoir lirikasida ilgari surilayotgan fikrning emotsional-ekspressiv ta'sir kuchini oshirish bilan birga, fikrning nozik va yashirin tomonlarini o'quvchilarga yetkazish vazifasini ham bajargan. Erkin Vohidov o'zining mumtoz adabiyot bilimlariga egaligi va so'z boyligining yuksakligi tufayli har bir takroriy qo'llangan so'zdan o'z badiiy maqsadini ochib berishda mohirona foydalana olgan. Uning ijodida bir so'zdan shu baytning o'zida ikki marta foydalanish va shu mobaynida qofiya va vaznni ham o'rniga qo'ya qolish radd san'atlarining bir tomoni bo'lsa, ikkala takroriy so'zning ham o'zgacha ma'no qirralarini ko'rsatib berish orqali o'quvchining badiiy didiga ta'sir ko'rsata olish ikkinchi muhim xususiyatini aks ettiradi. Qaytarish san'atlarining qaysi turi bo'lmasin, ijodkor undan o'rinli tarzda foydalana olgan va bu uning g'azallariga umrboqiylik baxsh etgan xususiyatlardan biridir.

Shoir fikrining ta'sirchan chiqishida qaytarish san'ati vosita bo'lib xizmat qiladi. Bunda muayyan so'zga yoki so'z birikmasiga e'tibor qaratilib, u orqali mantiqiy urg'uni ta'kidlash ko'zda tutiladi. Asosiy maqsadni ifoda etuvchi uslubiy yuk ana shu so'z yoki so'z birikmalarga ortiladi. Bunga qo'shimcha ravishda, so'zlarni takrorlash orqali yozuvchi o'z oldiga turli badiiy maqsadlarni qo'yish mumkin. Masalan, bu so'zlarning o'z atrofida turfa xil ma'no ottenkalarini birlashtirishini nazarda tutgan holda, ularning bir baytdagi takrori yordamida alohida o'ynoqilikni yuzaga keltirish imkoniyati ham mavjud. Shoir qaytarish san'atlarining istalgan turidan o'rinli foydalanish yordamida o'zining ijodiy kuch-qudratini namoyon qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. A. Hojiahmedov. *Mumtoz badiiyat malohati*. – Toshkent: Sharq, 1999.
2. T. Boboyev. *Adabiyotshunoslik asoslari*. – Toshkent: O'zbekiston, 2002.
3. E. Vohidov. *Tanlangan asarlar*. – Toshkent: Sharq, 2018.